

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
BOSHLANG'ICH SINFALARDA EKOSAYOHATLARNI TASHKIL
ETISHNING AHAMIYATI

Ergashmirzayeva Madina Islimjon qizi

NamDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarda ekologik sayohatlar tashkil etish atrof-muhitga e'tiborli va mas'uliyatli bo'lism, yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynashi, o'quv ekskursiyalari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shishi, ularni tabiatni asrashga ilhomlantirishi haqida so'z yuritilgan.

Абстрактный. В данной статье организация экологических походов в школах играет важную роль во внимательном и ответственном отношении к окружающей среде, воспитании подрастающего поколения, познавательные экскурсии способствуют всестороннему развитию учащихся, вдохновляют их на защиту природы.

Abstract. In this article, the organization of ecological trips in schools plays an important role in being attentive and responsible for the environment, educating the younger generation, educational excursions contribute to the comprehensive development of students, and inspire them to protect nature. spoken.

Kalit so'zlar: ekosayohatlar, atrof-muhit, ekologik ta'lim, amaliy o'rGANISH, mas'uliyat hissi, salomatlik, farovonlik, hamjamiyat aloqalar, uzoq muddatli ta'sir, tabbiy dunyoni qadrlash.

Ключевые слова: экотуризм, окружающая среда, экологическое образование, практическое обучение, чувство ответственности, здоровье, благополучие, общественные отношения, долгосрочное воздействие, признание медицинского мира.

Keywords: ecotourism, environment, environmental education, hands-on learning, sense of responsibility, health, well-being, community relations, long-term impact, appreciation of the medical world.

Shiddat bilan rivojlanayotgan asrimizda har bir sohaning ham o'z o'sish qamrovi mavjud, shu jumladan, eko-turizmni ham. O'zbekiston Respublikasi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Prezidentining “ O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2018-yil 3-fevraldagagi PF-5326-son Farmoni ham aynan ichki turizmni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ko’rilib, mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosini, qolaversa, tabiiy boyliklari bilan aholini tanishtirish asosiy maqsad qilib olindi. Qator rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy hududlarga tashriflar soni tobora ortayotganligi, iqtisodiy rivojlanish bo’yicha ko’plab tabiiy hududlarga sayohatlar yuzasidan tarmoqlardagi pasayish kuzatilmayotgani, shu jumladan, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni boshqarish bo’yicha mutaxassislar tabiiy hududlarga tashrif buyurishni va ularni moliyalashtirish, tabiiy hududlar yaqinidagi aholini ijtimoiy holatini yaxshilash hamda aholi bandligini ta’minalash yuzasidan sayohatlar sezilarli rol o’ynayotgani yaqqol ko’rinib turibdi.

Ekoturizmning bu - atrof-muhit muhofaza qilinadigan, jamoalar qo’llab-quvvatlanadigan, ta’lim xodimlar va mehmonlarni o’z ichga olgan, tabiatga asoslangan joyga mas’uliyatli tarzda sayohat qilishdir. Maktablarda eko-sayohatlar tashkil qilinishi bir qator sabablarga ko’ra muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ta’limda bunday sayohatlarni tashkil qilish ekologik barqarorlikka bo’lgan nuqtai nazarini shakllantirish yaniki o’quvchilarni tabiat qo’yniga tushishi atrof-muhitga do’stona munosabat bildirishi shu bilan birga tabiatga mas’uliyat va uni qadrlash kabi tuyg’ularni shakllanishiga undovchi amaliy jarayondir. Ekologik sayohatlarning maktablarda tashkil qilish orqali o’quvchilar:

1. **Ekologik ta’lim:** eko-sayohatlar tashkil etilishi o’quvchilar uchun amaliy ekologik ta’lim bilan tanishish imkonini beruvchi platforma bo’lib, turli mahalliy ekotizimlar, qo’riqxonalar, yovvoyi tabiat, iqlim sharoitlari, yashash mintaqalari vaboshqa tabiat bilan bog’liq hodisalar haqida ma’lumot oilishlari mumkin. Tabiat bilan yaqindan tanishish atrof-muhitni muhofaza qilish muhim ekanligini tushunishga yordam beradi.

2. **Amaliy o’rganish:** an’anaviy darslarni eko-sayohatlar bilan to’ldirish mumkin, masalan, botanika bog’larriga, qo’riqxonalarga sayr qilish, tabiatni kuzatish yoki tabiatni muhofaza qiluvchi tadbirda qatnashish jarayonida o’quchilar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'rgangan nazariy bilimlarini amaliyatda ko'rish imkoniyatini beradi, buning natijasida bilimlar mustahkamlanadi hamda darslar yanada qizizqarli, ta'sirli bo'lismiga hizmat qiladi.

3. Mas'uliyat hissi: tabiiy jarayonlarni kuzatish, atrof –tabiiy muhitni go'zalligidan bahramand bo'lish, tabiatni o'zaro aloqadorlik muvozanatini tushunish o'z o'rnida tabiatni asrash, turli zararli holatlarni(chiqindilar tashlash, barglarni yoqish) sodir etmaslik, tabiat bilan oqilona munosabat o'rnatish hissini uyg'otishi mumkin. Ekologik sayohatlar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarga ijobiy hissa qo'shish va ularni kundalik hayotga tadbiq etish kabi odatlarni shakillantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

4. Salomatlik va faravonlik: tabiat qo'ynida, ochiq havoda vaqt o'tkazish aqliy va jismoniy farovonlik uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik sayohatlar o'quvchilaga jismoniy faollik bilan shug'ullanish, toza havodan nafas olish va raqamli qurilmalardan cheklanish beradi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi.

5. Ijtimoiy aloqa: ekologik sayohatlar natijasida ko'pincha mahalliy hamjamiyat va tabiayni muhofaza qilish tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni tashil qiladi, o'quvchilar o'rtasida jamoatchilik ishtiroki va fuqarolik hissini uyg'otadi. Bunday ishtirok bolalarni inson faoliyati va atrof-muhitning o'zaro bog'liqligini his ettishlariga undaydi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiat ne'matlarini asrab –avaylash kabi tuyg'ularini rivojlantiradi.

6. Uzoq muddatli ta'sir: ekologik sayohatlar natijasida olingan tajribalar o'quvchilarga doimiy ta'sir ko'rsatishi, ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati va xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Bolalarni yoshlik davrlaridayoq tabiat bilan bog'liq tarzda tarbiyalash orqali ularni tabiiy dunyon qadrlaydigan va uni himoya qiladigan, atrof-muhitga e'tiborli shaxs bo'lib yetishish ehtimoli yuqoriqoq.

Sayohatlar davomida o'quvchilar chiqindilarni kamaytirish va energiyani tejash kabi kundalik hayotlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ekologik toza odatlarni o'rganadilar. Sayohatlar bolalarni sinf tushunchalarini qadrlash, tushinishga undash hamda hayotga bog'lash imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarni bilish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, fikrlash strategiyasini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllantiradi, shu bilan birga borliqni anglash, tarixiylikni qadrlash va ichki motivatsiyasini oshirish kabi ijobiy ta'sirlar ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda turizm sifatida tanilgan ekoturizm tabiiy hududlarni o'rghanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'quvchilar salohiyatini yanada rivojlantirish, nazariy bilimlarini amaliyat bilan bog'liq holda shakllantirish uchun asosiy ko'mak vazifasini o'taydi. Yana bir muhim jihat tabiatdagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bir qatorda undagi turli xil atrof-muhit muammolari haqida ham habardor bo'lism imkonini beradi. Qolaversa, toza va nozik ekotizimlarga mas'uliyatli sayohatni rag'batlantirish, biologik xilma-xillikni saqlash, yo'qolib borayotgan turlarni himoya qilish va tabiiy yashahs joylarini saqlashga yordam beradi. Bu yondashuv kelajak avlodlar tajriba va qadrlashi uchun tabiiy hududlar saqlanib qolishi ehtimolini oshirishiga kafolat beradi.

Ekologik turizm orqali sayohatchilar mahalliy madaniyatlar, an'analar va urf-odatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lismadi. Bunday madaniy almashinuv tashrif buyuruvchilar va mahalliy aholi o'rtasida o'zaro hurmat va tushunish hissini rivijlantiradi, bu esa boyitilgan sayohat tajribasi va madaniyatlararo o'rghanishga olib keladi. Shuningdek, u an'anaviy urf-odatlar va hunarmandchilikni saqlashni rag'batlantiradi, shu bilan nomoddiy madaniy merosini himoya qiladi. Ekoturizm tabiiy resurslarni asrab-avaylash, mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab -quvvatlash, madaniy almashinuv va tushunishni rag'batlantirish, ekologik ta'lim, tabiatni muhofaza qilish va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni ilgari surish uchun muhim ahamiyatga ega. Ekologik turizmni qo'llash va targ'ib qilish sayohatlar atrof-muhit uchun ham, ushbu yo'nalishda faoliyat olib boruvchilar uchun ham ijobiy natija bo'lishi uchun muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-3514-son 07.02.2018.
2. School fieldtrips (science education) L.D. Dierking
3. <https://uz.m.wikipedia.org>